

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA
BERISHDA QURISH-YASASH VA KONSTRUKSIYALASH
MARKAZINING AHAMIYATI**

Ro'zmetova Farangiz Azamatovna

*Urganch Ranch texnologiya universiteti, Pedagogika va Filologiya
fakulteti "Pedagogika va aniq fanlar" kafedrasida stajor o'qituvchisi.*

O'rinboyeva Marjona Yashin qizi

*Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I-kurs talabasi.*

Anatatsiya. Ushbu maqola Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga markazlardagi rivojlantiruvchi faoliyatlar, qurish yasash va konstruksiyalash markazidagi faoliyatlarni tashkil qilish haqida tarbiyachilarga yordam sifatida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. rivojlanish, rivojlanish markazlari, ta'limiy faoliyat, o'yin, ta'limiy faoliyat ishlanmalari, tezis, mashg'ulot ishlanma, ertalabki doira, umumiy guruh, rivojlantiruvchi markaz, til va nutq markazi, qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi.

Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning uzluksizligi va uzviylikini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, soxada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi doirasida, kichik gurux bolalarida kognitiv psihomotor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda Rivojlantiruvchi markazlarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va

Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida 5 ta markaz tashkil etilgan: "Til va Nutq", "Qurish, yasash va matematika" , "San'at", "Fan va tabiat", "Syujetli va rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazlar. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o'rin kasb etadi, chunki bola markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Tarbiyachi esa ularga yordamchi sanaladi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi.

Markazlarda ham bolalar bilan o'yin orqali ishlash muhim o'rin egallaydi. Buning uchun biz pedagoglar markazlarni bolajonlarga jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. Bolaga yangi mavzu haqida tushunchalar berilib, markazlardagi faoliyatlar orqali ularning bilimlari rivojlantirilib boriladi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkonini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va

qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlantirish markazlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, video namoyishlari, ijodiy faoliyat, tajribalardan foydalanib faoliyat olib borish ta‘lim samaradorligiga ijobiy ta‘sir qiladi.

Bola yeti yoshga to‘lganda maktab ta‘limiga boradi va ayni markazlar faoliyati maktabda quyidagi fanlar kesimida davom etadi:

1. Alifbe
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi.
3. Matematika
4. Tabiiy fanlar
5. Musiqa, tasviriy faoliyat, texnologiya

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida markazlar faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bola maktab ta‘limiga tayyor holda boradi va maktabdagi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Pedagogika yo‘nalishidagi Oliy ta‘lim muassasalarining Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Markazlar faoliyati va uslubiyoti”, “Rivojlantiruvchi markazlarda ta‘lim -tarbiya berish” kabi fanlar kiritilgan Oliy ta‘limda bo‘ljak tarbiyachilarni zamonaviy, xorijiy davlatlar bilan raqobatbardosh, innovatsion bilimlar bilan qurollantirilsa ular o‘z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil eta oladilar.

Klasterni muayyan xamkorlikka asoslangan tizim deyish mumkin, ammo uning oddiy tizimdan farqli jihatlari mavjud. Bu maxsus, o‘ziga xos tizim bo‘lib, elementlarni qo‘shish bilan uning ishi yaxshilanadi, ammo olib tashlash bilan halokatli oqibatlar kuzatilmaydi.

Tarbiyachilar barcha yosh guruhlarida rivojlanish markazlariga rahbarlik qilar ekanlar, bolalarni maqsadli yo‘naltirib, ularni kuzatish va nazorat qilish talab etiladi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir

bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchi va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanish ta’lim asosida olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta’limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Qurish-yasash va konstruksiyalash markazi esa bolalarni ijodiy tadqiqotlarini shakllantirishda asosiy rolni o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 30.09.2024 yilgagi 152-son.
2. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. 4.02.2022y
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “ma’naviyat”.2013
4. I.B.Grosheva va boshqalar “O‘yin orqali ta’lim olish”. Metodik qo‘llanma. “Poligro” nashriyoti. Toshkent 2020